

YUANNING GLOBAL ZAXIRA VALYUTASIGA AYLANISHI: JORIY MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Yuliboev Muhriddin

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi katta o‘qituvchisi

E-mail: yuliboyev@gmail.com

Uzokov Xurshid Ziyadullayevich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

E-mail: uzoqovxurshid073@gmail.com

Annotatsiya: Maqlada Yuanning jahon zaxira valyutasiga aylanishining bahsli masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqlada, iqtisodiyotning kattaligi, jahon savdosi va sanoat ishlab chiqarishdagi yetakchilik mavqeysi, yuanning xalqaro hisob-kitoblar va to‘lovlardagi ishtiroki ko‘laming oshishi, XXRning mavjud siyosiy tizimi kabi Xitoy milliy valyutasining jahon zaxira valyutasi aylanishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: jahon zaxira valyutasi, XVF, yuan, dollar, valyuta konvertatsiyasi, moliya bozori, siyosiy tizim.

THE TRANSFORMATION OF RENMENBI INTO A GLOBAL RESERVE CURRENCY: CURRENT PROBLEMS AND PROSPECTS

Abstract: The article considers controversial issues of the conversion of the Chinese RMB into the world reserve currency. Economic factors such as the size of its economy, the position of the leader in world trade and industrial production, the growing participation of the Chinese RMB in international transactions and payments

and barriers like the political system of China that prevent the nomination of the Chinese national currency on the role of the world's reserve currency are analyzed.

Key words: the world's reserve currency, the IMF, the RMB, USD, currency convertibility, financial market, the political system.

1.KIRISH

Ma'lumki, jahon iqtisodiyoti jahoning barcha mamlakatlari milliy iqtisodiyotlarini o'zida mujassamlashtirgan iqtisodiy tizim sifatida yagona pul birligiga asoslangan umumiylary Valyuta tizimiga ega emas. Jahon valyutasi rolini esa iqtisodiy gigantlar, shuningdek, alohida mamlakatlar guruhini qamrab oluvchi integratsion ittifoqlar valyutalari bajarib bermoqda. Tabiiyki, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining turli bosqichlarida alohida mamlakat va hududlarning iqtisodiy kuch-qudrati ular milliy valyutalarining jahon aylanmasidagi roli va qiymatiga to'g'ri proporsional ravishda o'zgarib turadi. Qayd etish joizki, Xitoyning so'nggi o'ttiz yil davomida jahon savdosida yetakchilar qatorida e'tirof etilib kelinayotgani, xalqaro moliyaviy operatsiyalardagi ishtiroki ko'laming oshishi va xalqaro maydonda gigantlar qatoriga qo'shilishi haqli ravishda yuanning jahon zaxira valyutasiga aylanish imkoniyatlari borasidagi qizg'in baxs-munozaralarga o'ziga xos zamin yaratdi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, ushbu baxs-munozaralarda barcha tadqiqotchilar yuanning zaxira valyutasi sifatidagi faoliyati kengayishiga ta'sir etuvchi bir qator siyosiy va iqtisodiy omillarga e'tibor qaratishmoqda. Aynan, zamonaviy jahon valyuta tizimida yuan roli va o'rni o'zgarishini prognoz qilish asosida ushbu omillar harakati kuchi va ahamiyatini amaliy baholash ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiyoti sohasidagi ilmiy adabiyotlarda alohida mamalakat milliy valyutasining jahon valyutasiga aylanishi sabablari yetarlicha yoritilgan. Jahon valyuta tizimi tarixiga nazar shuni ko'rsatadiki, milliy valyuta jahon valyutasi maqomini olishi uchun ham geosiyosiy, ham iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan bir necha shartlarni

bajarishi lozim. Ma'lumki, ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda jahon valyutasi rolini o'zida savdo operatsiyalarining deyarli 90 foizini va markaziy banklar zaxiralarining eng katta hajmini aks ettirgan funt sterling bajarib bergen bo'lib, jahon valyuta tizimida funt sterling nufuzining mustahkamlanishi natijasida Buyuk Britaniya uzoq yillar mobaynida xalqaro savdo va jahon kapital harakatida yetakchilik mavqeyini saqlab keldi. Lekin ikkinchi jahon urushidan so'ng Buyuk Britaniya iqtisodiyotining kuchsizlanishi va jahon siyosiy arenasida AQSH ta'sirining kuchayishi natijasida AQSH dollari asosiy jahon zaxira valyutasiga aylandi.

Qiziq jihat shundaki, boshqa bir rus tadqiqtchisi L.N. Krasavina XVF me'zonlariga shubha bilan qaraydi. Uning ta'kidlashicha, jahon zaxira valyutasi maqomi XVF ustavida ko'rsatilgan iqtisodiy va siyosiy me'zonlar bilan emas, balki qiymatning xalqaro o'lchovi (shartnoma valyutasi sifatida), xalqaro to'lov va zaxira vositasi hamda jahon moliya bozorida raqobatbardoshlik funksiyalarini samarali bajarish kabi me'zonlarga asosan belgilanishi lozim.¹¹³ Ahamiyatlisi shundaki, Peterson nomidagi jahon iqtisodiyoti insituti iqtisodchilari ham yuqoridagi mulohazaga o'xhash qarashlarga ega bo'lib, ularning qayd etishicha, mamlakatlar o'z zaxiralari qiymatini saqlash, qulay hisob-kitoblar hamda valyuta kursini belgilashda bazis valyuta ega bo'lishlari zarurligi sababli zaxira valyutasiga ehtiyoj sezadilar.¹¹⁴

HSBC banki ekspertlar guruhi yuanning jahon valyuta tizimidagi istiqbollarini baholab, Xitoy milliy valyutasining evolyutsiyasi uchta bosqichni (dastlab yuan jahon savdo valyutasi, keyin investitsion valyuta, so'ngra esa jahon zaxira valyutasi) bosib o'tishi muqarrarligini ta'kidlashdi.¹¹⁵

OLINGAN NATIJALAR

Xususan, XVF tomonidan taqdim etilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga asosan, 2022-yilda Xitoy YaIM hajmi 18,32 trln. AQSH dollarni, Xitoyning jahon YaIMidagi ulushi esa 14,58 foizni tashkil etgan bo'lsa, AQSHning bu boradagi ko'rsatkichlari mos

¹¹³ Красавина Л. Н. Тенденции и перспективы реформы мировой валютной системы//Век глобализации. Выпуск №1(7)/2011.

¹¹⁴Через 10 лет юань станет мировой резервной валютой. 26.08.2013//<<http://www.finmarket.ru/main/article/3439632>

¹¹⁵ Эволюция юаня /«Expert Online»//<<http://expert.ru/2014/04/7/evolyutsiya-yuanya/>

ravishda 25,04 trln. AQSH dollarni va 15,47 foizni tashkil etishi taxmin qilinmoqda (1-jadvalga qarang). Shu o‘rinda qayd etish joizki, kelgusi uch yil mobaynida AQSH va Xitoy o‘rtasidagi xarid qilish quvvati bo‘yicha hisoblangan YaIM bo‘yicha farqlar Xitoy foydasiga qisqarib boradi.

Ahamiyatli jihat shundaki, XVF tomonidan ilgari e’lon qilingan prognozlarda AQSHning 2022-yil yakuniga qadar xarid qilish quvvati bo‘yicha hisoblangan YaIM bo‘yicha Xitoyni ortda qoldirishi borasidagi hisob-kitoblari o‘zini oqlagan bo‘lsada, vaziyat 2025-yildan boshlab yaqqol Xitoy foydasiga o‘zgarishi ko‘pchilik ekspertlar tomonidan tahmin qilinmoqda.

1-jadval

AQSH va XXRning 2013-2022-yillar mobaynidagi xarid qilish quvvati bo‘yicha YaIM ko‘rsatkichlari¹¹⁶

Ko‘rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2022
XXR YaIM (trln.dollar)	13,4	14,6	15,9	17,4	19,0	20,7	18,32
XXRning jahon YaIMidagi ulushi (%)	15,4	16,0	16,5	16,9	17,4	17,9	14,58
AQSH YaIM (trln. dollar)	16,7	17,4	18,4	19,4	20,5	21,6	25,04
AQSHning jahon YaIMidagi ulushi (%)	19,3	19,1	19,0	18,9	18,8	18,6	15,47

Empirik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, XXR iqtisosiy o‘sish va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda yetakchilik mavqeyini saqlash bilan birgalikda tashqi savdo hajmi bo‘yicha ham jahonda yetakchilar qatorida e’tirof etib kelinmoqda. Xususan, 2021-yil yakunlariga ko‘ra, Xitoy tashqi savdo aylanmasi hajmi bo‘yicha AQSHni ortda qoldirib, birinchi o‘ringa ko‘tarilgan bo‘lsa, ushbu yilda mamlakat eksport va import hajmi mos ravishda 6,05 va 2,69 trln. AQSH dollarini tashkil etdi.¹¹⁷

Tashqi savdo hajmini oshirish barobarida Xitoy savdo hamkorlari bilan hisob-kitoblarda yuandan foydalanish ko‘lamini kengaytirib bordi. Agar 2010-yilda mamlakat tashqi savdosining faqatgina 3 foizi yuanda amalga oshirilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 25 foizga yetdi. Yuanga 2010-yildan boshlab ASEAN mamlakatlari tomonidan savdo valyutasi sifatida qaralayotgan bo‘lsa, bugungi kunga

¹¹⁶ Muallif tomonidan XVF ma’lumotlari asosida tuzilgan.

¹¹⁷ <https://seanews.ru/2022/01/25/ru-import-i-jeksport-kitaja-2021/>

kelib, ular qatoriga Rossiya, Braziliya, JAR va Hindiston ham qo'shilishga ulgurdi. Biroq Yevrohudud mamlakatlari va AQSH hali yuanni AQSH dollari va yevroga teng qiymatli valyuta sifatida tan olishga shoshilishmayapti.

Xalqaro banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar jamiyatni (SWIFT) tomonidan berilgan ma'lumotlarga qaraganda, yuan 2022-yilda xalqaro to'lovlarni amalga oshirishda foydalanuvchi valyutalar orasida Shvetsariya frankini ortda qoldirib, yettinchi o'ringa ko'tarilgan bo'lsa, kelgusi 3 yillikda yevroni ortda qoldirib, eng ko'p foydalanuvchi valyutalar o'rtasida AQSH dollaridan keyingi o'rinni band etadi.¹¹⁸

Biroq shu o'rinda qayd etish joizki, yuanning xalqaro to'lov vositasi sifatidagi ulushining oshishi Xitoy (Gonkongni hisobga olganda) o'zaro xalqaro to'lovlarda yuandan foydalanayotgani bilan asoslanadi. Jumladan, yuan bugungi kunda Xitoy va Gonkong bilan transchegaraviy to'lovlarda eng ko'p foydalaniluvchi valyutalar orasida dollardan keyingi o'rinni band etib turibdi. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2014-yilda Xitoy va Gonkong bilan transchegaraviy savdoda yuanning ulushi 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yil yakunlariga ko'ra Janubiy Amerika va Yaqin Sharq mamlakatlari va Xitoy o'rtasidagi to'lovlarning 65 foizi aynan yuanda, Xitoy va Gonkong subyekt sifatida ishtirok etmagan xalqaro to'lov va hisob-kitoblarning faqatgina 12 foizi XXR milliy vositasida amalga oshirilgan. Ushbu jihatdan qaraganda, yuanni "vehicle currency" (eksportyor va importyor mamlakat o'rtasidagi to'lov vositasi bo'lmay turib, xalqaro qiymat o'lchovi va to'lov vositasi vazifalarini bajaruvchi valyuta) sifatida e'tirof etish uchun Xitoyning valyuta konversion operatsiyalarining xalqaro tizimi ishtirokchisi sifatidagi maqomi yetarli emasligi anglashiladi.

Ta'kidlash joizki, yuanni zaxira valyutasi sifatida shakllantirish jarayonidagi eng diqqatga sazovor urinishlardan biri bu yuanning ayrim mamlakatlar tomonidan oltin-valyuta zaxiralari tarkibiga kiritilishi bilan xarakterlanadi. Xususan, ushbu yo'nalishda Belorussiya Xalq banki 2007-yilning sentabr oyida o'zining oltin-valyuta zaxiralarini

¹¹⁸ 10. К 2015 году юань войдет в тройку самых активных торговых валют мира. 03 апреля 2014 г. // <http://www.finmarket.ru/main/article/3671416>

yuan hisobiga diversifikatsiyalash haqidagi qarorini keng ommaga e'lon qilgan bo'lsa, Yaponiya 2011-yil dekabrda 10 mlrd. dollarlik yuandagi davlat obligatsiyalarini sotib olish yo'li bilan o'z oltin-valyuta zaxiralari tarkibida yuanning ulushini yanada oshirdi. Shuningdek, 2011-yilda Avstraliya, Nigeriya, Tailand markaziy banklari yuanni rasmiy valyuta zaxiralari tarkibiga qo'shishni rejalashtirishgan bo'lsa, 2014-yilda Xitoy Xalq Banki o'zining valyuta zaxiralarini yuan orqali to'ldirish istagida bo'lgan xorijiy emission banklar sonini oshirishda davom etdi. Ushbu yo'nalishda, xuddi V. Katanasov ta'kidlaganidek, de-fakto yuan aniq o'lchamda bir necha mamlakatlar uchun zaxira valyutasiga aylanib ulgurdi.¹¹⁹

Empirik tadqiqotlarning aks ettirishicha, yuanning jahon bozorida moliyaviy bitimlar valyutasi sifatida nufuzining yuksalishiga to'sqinlik qiluvchi muammolardan biri uning to'liq konvertatsiyasi ta'minlanmaganligi va jahon moliya bozorlarida yetarlicha ulushga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Ushbu jihatdan qaraganda yuan bugungi kunda qisman konvertatsiyalangan valyuta bo'lib, kapital harakati bo'yicha operatsiyalarda cheklovlar saqlanib kelinmoqda.

Shu o'rinda Xitoy milliy valyutasi baynalmilallashuv dinamikasini tahlil qilish orqali qayd etish mumkinki, yuan amaliy jihatdan global zaxira valyutasi maqomiga erishishining dastlabki shart-sharoitlari amaliy realizatsiya bosqichining ma'lum bir darajasida turibdi. Lekin iqtisodiy jihatdan eng katta muammolardan biri qimmatli qog'ozlar bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi bo'lib qolmoqda. Ushbu jihatdan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bozorida yetarlicha likvidlilikni ta'minlamasdan turib, xorijiy investorlar tomonidan yuanga jozibador valyuta sifatida qarash ehtimolligi juda past bo'lsa, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari yuan valyuta riskini xedjirlash uchun yetarlicha derivativlarga ega bo'limsa, almanishuv kursidagi katta tebranishlardan qochishlari mumkin.

Yuqoridagi iqtisodiy omillarni umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, yuan jahon valyutasi rolini ijro etishga yetarlicha yaqin kelib ulgurdi. Biroq yuanning jahon

¹¹⁹Катасонов В. Интернационализация юаня (I). 11.10.2014// <<http://m.fondsk.ru/news/2014/10/11/internacionalizacia-uanja-i-29911.html>>

valyutasi sifatida shakllanishida iqtisodiy omillar bilan birgalikda siyosiy omillarga ham ahamiyat qaratish, bizningcha, maqsadga muvofiqdir.

Yuanning jahon zaxira valyutalari qatoriga qo'shilishiga to'sqinlik qiluvchi siyosiy omillarga g'arb tadqiqotchilari tomonidan e'tibor qaratilgan bo'lib, xususan, "Der Spiegel" nashri tadqiqotchisi M. Noymanning fikriga ko'ra, kommunistik rejimdag'i g'arb mamlakatlari tomonidan yuanning qabul qilinmasligi ushbu mamlakatlarning jahon valyuta operatsiyalaridagi sezilarli ulushga ega ekanligi bois yuanning xalqaro moliyaviy operatsiyalardagi harakatiga to'sqinlik qilishi muqarrardir. Uning qarashlariga ko'ra, agar Xitoy demokratiya bo'lganda, bundan mutlaqo muammo bo'lmas edi.¹²⁰

Kaliforniya iqtisodiyot universiteti professori B. Eychengrinning talqiniga ko'ra, yuanning jahon valyutasiga aylanishi yo'lidagi uch shartlardan (yuqori likvidlilikka ega bo'lgan bozorlarni shakllantirish; iqtisodiy o'sishni jadallashtirish; kapital harakati bo'yicha erkin konvertatsiyani ta'minlash) tashqari mamlakat uchun Xitoy milliy valyutasini jahon valyutasiga transformatsiyasidagi jiddiy muammo bu davlat siyosiy tizimidir. Uning qayd etishicha, funt sterling va dollar, aynan, demokratiya mamlakatlarida xalqaro va zaxira valyutalariga aylanib, ushbu davlatlarda Xitoydan farqli ravishda ijro etuvchi hokimiyatning aralashuvini cheklashga qaratilgan demokratik proseduralar mavjud. Eychengrinning ta'kidlashicha, milliy valyuta xalqaro valyuta statusini olishida liberal siyosiy tizimning ahamiyati beqiyosdir.¹²¹

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, XXR milliy valyutasining jahon zaxira valyutasi maqomiga erishishi imkoniyatlari va istiqbollari ushbu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kaliti sifatida iqtisodiy va siyosiy omillarning ahamiyati va o'zaro bog'liqligini amaliy jihatdan baholashga bog'liq. Bizning qarashimizcha, ushbu yo'nalishda yuanning jahon valyuta tizimida AQSH dollariga raqobatchi valyuta sifatida ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatidan nufuzining

¹²⁰ Мария Маркварт и Штефан Шульц | Der Spiegel. Китай приступает к тюнингу юаня. 4 марта 2011 г. //<http://www.inopressa.ru/article/04Mar2011/spiegel/china.html>>

¹²¹ Почему юань не станет новой резервной валютой. 12.10.2012//<http://www.vestifinance.ru/articles/18276>>

oshishi uning jahon valyutasiga transformatsiyasida xalqaro savdo va moliyaviy operatsiyalarda yuan ulushining o'sishiga to'g'ri proporsional bo'lib, uzoq muddatli davrda AQSH dollari hukmronligiga barham berish va jahon hamjamiyati tarixida yangi sahifalar ochilishining kafolati bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Katasonov B. internationalization of the RMB (II)// <<http://www.fondsk.Ru/news/2014/10/28/internacionalizacia-uanja-ii-30144.html>>
2. Krasavina LN Trends and prospects of reform of the global monetary system //<Age of Globalization. Issue №1 (7) / 2011>
3. After 10 years, the yuan will become the world's reserve currency. 26.08.2013//<<http://www.finmarket.ru/main/article/3439632>>
4. The evolution of the renminbi /«Expert Online» //<<http://expert.ru/2014/04/7/evolyutsiya-yuanya>/
5. Maria Marquart and Stefan Schulz | Der Spiegel. China starts tuning yuan. March 4, 2011// <http://www.inopressa.ru/article/04Mar2011/spiegel/china.html>
6. China – the largest economy in the world, officially. 09.10.2014 // <<http://www.rbcdaily.ru/economy/562949992588541>>
7. China has become the leader of the foreign trade 14.01.2014// <http://www.ng.ru/economics/2014-01-14/4_china.html>
8. Katasonov B. Expansion of RMB: currency swaps 25.09.2014//<http://ruskline.ru/news_rl/2014/09/25/ekspansiya_yuanya_valyutnye_svopy/>
9. By 2015, the yuan will enter the top three most active trading currencies in the world. April 3, 2014 // <<http://www.finmarket.ru/main/article/3671416>>
10. V. Katasonov internationalization of the RMB (I). 11.10.2014 // <<http://m.fondsk.ru/news/2014/10/11/internacionalizacia-uanja-i-29911.html>>
11. Why does not the yuan will become a new reserve currency? 12.10.2012 // <<http://www.vestifinance.ru/articles/18276>>